O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KECHKI TA’LIM VA MAGISTRATURA FAKULTETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 33M

ESHBEKOV SHAHBOZ IKROMJON O‘G‘LI

PANDEMIYADAN KEYINGI DAVRDA DUNYO IQTISODIY TARAQQIYOTINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Mutaxassislik: 70310102 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Phd, dots.Odilova D.B

TOSHKENT-2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyhot univertsiteti
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar: **Phd, dots. Odilova D.B**

Kafedra mudiri: **i.f.n., prof. X. Asatullayev**

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti

dekani: **DSc., prof. J. Karimqulov**

Men, Eshbekov Shahboz Ikromjon O'g'li ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda magistrlik disertatsiya ishi Yakuniy Davlat Attestatsiya Komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

"23" may 2025 yil _____

TOShKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI DASTLABKI HIMOYASI BAYONNOMASI

Toshkent shahar **2025 yil "11" aprel**

Iqtisodiyot fakul'teti 2-kurs 70310102-"Iqtisodiyot" tarmoqlar va sohalar mutaxassisligi MEKP-03 guruhi magistranti Jumaqov Mahbub Nafisaman ugli ning "Tanzimlangan narxning davlat byudjeti iqtisodiy ta'sirining asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi natijalariga ko'ra quyidagi kamchiliklar qayd etildi:

1) Dissertatsiyaning reja qismi savollarga javob bera olish darajasida tuzilmagan.
2) Dissertatsiyada kirish qismi, statistik va tahlil xatolar mavjud.
3) Ishning ifodalanishidan ayrim so'zlar kirish qismi talabiga javob bermaydi.

Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan xulosa (KIMKda himoyaga **tavsiya etiladi/tavsiya etilmaydi**) Tavsiya etilmadi

Komissiya raisi: Jo'rayev K.S.

Komissiya a'zolari: Raupov A.O.
Sharipov Sh.B.
Ochilova D.B.
Mamatov M.F.

Izoh:

1. Magistrlik dissertatsiya dastlabki himoyasi talab qilingan xujjatlar to'liq rasmiylashtirilgan va taqdim etilgan holdagina amalga oshiriladi.

Annotatsiya

Mazkur magisrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi — pandemiya va uning ta'siri natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy o'zgarishlarni tahlil qilish, dunyo iqtisodiyotining pandemiyadan keyingi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va ularning global va mahalliy darajadagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ta'sirlarini o'rganish. Pandemiya va uning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish, pandemiyaning turli sohalarga, jumladan, mehnat bozoriga, savdoga, ta'minot zanjirlariga, raqamli texnologiyalar va atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini o'rganish. Dissertatsiyasining asosiy maqsadidan kelib chiqib, quyudagi vazifalar qo'yilgan. Dunyo iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini aniqlash, xususan, raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, global ta'minot zanjirlarining o'zgarishi kabi yangi tendensiyalarni o'rganish. Ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni aniqlash, pandemiya va undan keyingi davrda yangi mehnat munosabatlari, masofaviy ishlash va boshqa mehnat formatlarining rivojlanishini tahlil qilish. Global iqtisodiy integratsiya va uning ta'sirlarini o'rganish, pandemiyaning global iqtisodiy tizimdagi o'zgarishlarga, shuningdek, davlatlararo savdo va investitsiyalarni rivojlantirishga ta'sirini o'rganish. Davlat siyosati va iqtisodiy siyosatni tahlil qilish, pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish choralarini, davlatlarning iqtisodiy siyosatdagi o'zgarishlarini va yangi strategiyalarni tahlil qilish. O'zbekistonda pandemiyaning iqtisodiy ta'sirini o'rganish va mamlakatda iqtisodiy tiklanish uchun qabul qilingan chora-tadbirlarni baholash. Iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun pandemiyadan keyingi davrda samarali strategiyalarni ishlab chiqish.

Bu maqsad va vazifalar asosida dissertatsiyada dunyo iqtisodiy taraqqiyotining pandemiyadan keyingi asosiy yo'nalishlari, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va rivojlanish istiqbollari chuqur tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: pandemiya, raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, global ta'minot, global, raqamli texnologiya.

Abstract

The main objective of this master's thesis is to analyze the economic changes resulting from the pandemic and its impact, to identify the directions of development of the world economy after the pandemic, and to study their social, political, and economic impacts at the global and local levels. To analyze the pandemic and its impact on the economy, to study the impact of the pandemic on various sectors, including the labor market, trade, supply chains, digital technologies, and the environment. Based on the main objective of the thesis, the following tasks are set. To identify the main directions of world economic development, in particular, to study new trends such as the digital economy, the green economy, and changes in global supply chains. To identify social and economic changes, to analyze the development of new labor relations, remote work, and other work formats during the pandemic and after it. To study global economic integration and its impacts, to study the impact of the pandemic on changes in the global economic system, as well as on the development of interstate trade and investment.

Analysis of state policy and economic policy, measures for economic recovery after the pandemic, changes in the economic policies of countries and new strategies. Study of the economic impact of the pandemic in Uzbekistan and assessment of measures taken for economic recovery in the country. Development of effective strategies in the post-pandemic period to ensure economic and social stability.

Based on these goals and objectives, the dissertation provides an in-depth analysis of the main directions of world economic development after the pandemic, their interdependence and development prospects.

Keywords: pandemic, digital economy, green economy, global supply, global, digital technology.

MUNDARIJA

KIRISH..... 3

I BOB. PANDEMIYADAN KEYINGI DAVRDA DUNYO IQTISODIYOTI TARAQQIYOTINING ASOSIY YO‘NALISHLARINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI 11

1.1 Dunyo iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari tushunchasining nazariy asoslari..... 11

1.2 Pandemiyaning jahon iqtisodiyoti rivojiga ta’siri..... 22

1.3 Pandemiyaning O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti rivojiga ta’siri va inqirozga qarshi kurashish chora-tadbirlari..... 34

I bob bo‘yicha qisqacha xulosa..... 40

II BOB. PANDEMIYADAN KEYINGI DAVRDA DUNYO IQTISODIYOTI TARAQQIYOTINING HOLATI TAHLILI VA NATIJALARI 42

2.1 Covid-19 pandemiyasining butun dunyo bo‘ylab raqamli iqtisodiyotga ta’siri tahlili..... 42

2.2 Covid-19 pandemiyasining mamlakatlar turizm sohasiga ta’siri va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tahlili..... 50

2.3 Pandemiyadan keying sharoitda ishchi kuchi bandligini ta’minlashda raqamli iqtisodiyotning investitsion muhitga ta’siri tahlili..... 56

II bob bo‘yicha qisqacha xulosa..... 62

III BOB. PANDEMIYA VA PANDEMIYADAN KEYINGI DAVRLARDA O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA IMKONIYATLARI..... 63

3.1 Pandemiya va pandemiyadan keyingi davrlarda O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi..... 63

3.2 Pandemiya va pandemiyadan keyingi davrda O‘zbekiston Respublikasida import o‘rnini bosuvchi iqtisodiy o‘sish modeli. 75

3.3 “COVID-19” pandemiyasi sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish va uning manzilliligini kuchaytirish yo‘nalishlari..... 81

III bob bo‘yicha qisqacha xulosa..... 92

XULOSA VA TAKLIFLAR..... 94

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI..... 96

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida pandemiya, xususan COVID-19 pandemiyasi, sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. U nafaqat insonlarning salomatligiga, balki iqtisodiy tizimlarga ham katta zarar yetkazdi. Pandemiya davrida dunyo bo‘ylab iqtisodiy faollik to‘xtab, global tarmoqlar, transport, sanoat va xizmat ko‘rsatish sektorlari keskin pasaygan. Shu bilan birga, pandemiya yangi iqtisodiy paradigmalarning shakllanishi uchun bir turtki bo‘ldi.

Pandemiyadan keyingi davrda iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagi sohalarda to‘planadi:

Raqamli iqtisodiyot va texnologiyalar: Pandemiya raqamli transformatsiyani jadallashtirdi. Masofaviy ishlash, onlayn ta’lim, elektron tijorat kabi sohalar rivojlanib, raqamli infratuzilma va texnologiyalarni qo‘llash zarurati ortdi. Korrupsiya va nohaqlikni kamaytirish maqsadida davlatlar raqamli tizimlarga sarmoya kiritishmoqda, bu esa iqtisodiy o‘sishga olib kelmoqda.

Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot: Pandemiya atrof-muhitga nisbatan e’tiborni yanada oshirdi. Odamlar va hukumatlar tabiatni himoya qilish, barqaror energiya manbalarini rivojlantirish va atrof-muhitni saqlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqdilar. Yashil energiya va ekologik barqarorlik iqtisodiyotning yangi o‘sish manbai bo‘lib, bu yo‘nalish bo‘yicha sarmoyalar ko‘paymoqda.

Global ta’minot zanjirlarining qayta shakllanishi: Pandemiya global ta’minot zanjirlarining uzilishi, ishlab chiqarishning to‘xtashi va tovarlar yetkazib berishdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Bunday sharoitda ko‘plab mamlakatlar mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va resurslarga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish bo‘yicha choralar ko‘rishmoqda. Shuningdek, ta’minot zanjirlarini diversifikatsiya qilish va yangi bozorlarga chiqish masalalari dolzarb bo‘lib qoldi.

Sog‘liqni saqlash va tibbiyot tizimini modernizatsiya qilish: Pandemiya sog‘liqni saqlash tizimlarining zaif joylarini ochib berdi. Bu esa davlatlarni